

XORAZM ALLALARIDA O'XSHATISH VA SIFATLASHLARNING QO'LLANILISH USULLARI

Azatova Guliston

Xorazm Ma'mun akademiyasi doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xorazm xalq allalarida qo'llanilgan sifatlash va o'xshatishlar tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda epitet va tashbehlarining leksik-semantik, morfologik hamda sintaktik xususiyatlari yoritilib, ularning nutqiy va uslubiy vazifalari aniqlanadi. Xalq allalarida sifatlash va o'xshatishlarning baholovchi birlik sifatida qo'llanilishi, bolaning qiyofasi va ruhiy holatini ifodalashdagi lingvistik imkoniyatlari ochib beriladi. Maqola folklor matnlarini lingvopoetik jihatdan o'rganishga qaratilgan.

Аннотация: В данной статье анализируются прилагательные и сравнения, используемые в хорезмском фольклоре, с лингвистической точки зрения. Исследование освещает лексико-семантические, морфологические и синтаксические свойства эпитетов и сравнений, а также определяет их речевые и стилистические функции. Раскрывается использование прилагательных и сравнений в фольклоре как оценочных единиц, их лингвистические возможности в выражении образа и психического состояния ребенка. Цель статьи – изучение фольклорных текстов с лингвопоэтической точки зрения.

Abstract: This article analyzes the adjectives and similes used in Khorezm folk alla from a linguistic point of view. The study highlights the lexical-semantic, morphological and syntactic properties of epithets and similes, and identifies their speech and stylistic functions. The use of adjectives and similes in folk alla as evaluative units, their linguistic possibilities in expressing the image and mental state of the child are revealed. The article is aimed at studying folklore texts from a linguopoetic perspective.

Kalit so'zlar: Xorazm folklori, xalq allalari, sifatlash, o'xshatish, epitet, tashbeh, lingvopoetika.

Ключевые слова: хорезмский фольклор, народные алла, прилагательное, сравнение, эпитет, метафора, лингвопоэтика.

Keywords: Khorezm folklore, folk allahs, adjective, simile, epithet, metaphor, linguopoetics.

O'zbek xalq og'zaki ijodi tilning tarixiy taraqqiyoti, xalq tafakkuri va nutq madaniyatini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodining qadimiy janrlaridan biri bo'lgan allalar bolaning ilk nutqiy va ruhiy rivojida muhim o'rin tutadi.

Ayniqsa, Xorazm xalq allalari o'zining o'ziga xos til birliklari, obrazli ifodasi va poetik qurilishi bilan ajralib turadi [1].

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaralganda, allalar tili sodda bo'lishiga qaramay, unda sifatlash va o'xshatish kabi tasviriy vositalar faol ishlatiladi. Ushbu birliklar nutqning hissiy-ta'sirchanligini oshiruvchi, baholovchi semantik yukga ega bo'lgan lingvistik vositalar sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur maqolada Xorazm xalq allalarida sifatlash va o'xshatishlarning qo'llanilish usullari lingvistik jihatdan tahlil qilinadi.

Sifatlash (epitet) tilshunoslikda predmet yoki shaxsning muhim belgisini baholovchi ma'no asosida ifodalovchi leksik-semantik birlik sifatida qaraladi. Xorazm xalq allalarida sifatlashlar asosan sifat + ot modelida shakllanib, bolaning tashqi ko'rinishi va ruhiy holatini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, "oppog'im bolam", "shirin jonim", "qora ko'zim" kabi birikmalar tarkibidagi sifatlar semantik jihatdan ijobiy baholovchi ma'noga ega bo'lib, nutqda ekspressivlikni kuchaytiradi [2].

...Qo'llab yivarsa Rahmon.

Bo'larsan ela sulton.

Ollo bolam-ey ollo,
so'zim-ey ollo.

Shirin

... Oylonayin odingnon,

Yetgan ko'ngil shodingnon,
chiqmasa yodingnon,
bodingnon

Haq

Dog'

yemrilar

Ollo bolam-ey ollo,

Qora go'zim-ey ollo [3].

Bu sifatlashlar nafaqat predmet belgisini bildiradi, balki onaning subyektiv munosabatini ham ifodalaydi. Xorazm allalarida rang bildiruvchi sifatlar (oppoq, oq, qora) va hissiy-baholovchi sifatlar (shirin, aziz, ulug', buyuk) ko'p qo'llaniladi. Ushbu sifatlashlar nutqiy kontekstda mustaqil semantik yukga ega bo'lib, bolaning beg'uborligi va qadr-qimmatini til vositalari orqali namoyon etadi. Bundan tashqari, tabiat unsurlari bilan bog'liq sifatlashlar ham keng qo'llaniladi. "Oy yuzli", "quyosh nurli", "gul yuzli" kabi epitetlar orqali bola go'zallik va nur manbai sifatida tasvirlanadi. Bu holat Xorazm allalarining estetik jihatdan boy ekanini ko'rsatadi.

Sifatlashlarning takroriy shaklda qo'llanishi ham allalarga xos bo'lib, u ohangdorlikni kuchaytiradi hamda bolaning ruhiy tinchlanishiga xizmat qiladi. "Ulli-ulli (katta-katta)", "Mozzi-mozzi (shirin-shirin)" kabi takrorlar orqali ifodalanayotgan fikrning ta'sirchanligi yanada ortadi.

O'xshatish (tashbeh) tilshunoslikda qiyoslash munosabatiga asoslangan sintaktik-semantik birlik sifatida talqin qilinadi. Xorazm xalq allalarida o'xshatishlar asosan –dek, –day, kabi qo'shimchalar orqali ifodalanadi. Masalan, "oydek yuz", "guldek ochilgan" kabi birikmalarda qiyoslash semantikasi bolaning tashqi ko'rinishini tabiatdagi eng go'zal obyektlar bilan bog'laydi [4].

Ollo sani qo'llasin,
 Guldin(dek) yuzing so'lmasin,
 Yomon guning bo'lmasin,
 Jonim bolama alla.

Bu

o'xshatishlar lingvistik jihatdan sodda bo'lsa-da, kuchli obrazlilikka ega.

Shuningdek, "oltindek aziz", "gavhardek bebaho" kabi o'xshatishlarda moddiy qadriyatlar orqali bolaning ijtimoiy va hissiy qiymati ifodalanadi.

Tovoxda oshim bolam,
 Qo'zidek yuvoshim bolam,
 Oqizma yoshim bolam,
 Omon bo'lay allayo alla

Hayvonot olamiga oid "qo'zidek yuvosh" kabi o'xshatishlar esa semantik jihatdan muloyimlik va sokinlik ma'nolarini kuchaytiradi.

Xorazm xalq allalarida sifatlash va o'xshatishlar nutqning uslubiy jihatdan ta'sirchanligini oshiruvchi vositalardir. Bu birliklar bolaning idrokiga mos, sodda va tushunarli bo'lib, allalarning musiqiyliigi va ritmik tuzilishiga moslashadi [4].

Shuningdek Xorazm xalq allalarida qo'llanilgan sifatlash va o'xshatishlar nafaqat badiiy-estetik, balki muhim tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. Ular bolaning estetik didini shakllantiradi, ona va bola o'rtasidagi ruhiy bog'liqlikni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, bu vositalar orqali milliy mentalitet, xalqning dunyoqarashi va qadriyatlari avloddan avlodga uzatiladi.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan, ushbu birliklar baholovchi leksika tarkibiga kirib, nutq subyekti (ona)ning hissiy holatini ifodalashga xizmat qiladi. Natijada, sifatlash va o'xshatishlar allalarda faqat badiiy vosita emas, balki muhim kommunikativ birlik sifatida ham namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Xorazm xalq allalarida sifatlash va o'xshatishlar tilshunoslik jihatdan muhim lingvistik birliklar hisoblanadi. Ular leksik-semantik va sintaktik qurilishi orqali bolaning qiyofasi, ruhiy holati va qadr-qimmatini ifodalashga xizmat qiladi. Sifatlash va o'xshatishlarning faol qo'llanilishi Xorazm allalarining nutqiy boyligini va lingvopoetik xususiyatlarini namoyon etadi. Ushbu birliklar xalq allalarini tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganishda muhim tadqiqot obyekti bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Imomov K. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: Fan, 2005.
2. Xorazm folklori namunolari. – Toshkent: Fan, 1998.
3. Ehson S., Mahmudov R., Azatova G., Yusupova S. Xorazm xazinasi. 1-kitob. – Xiva-2024.
4. Jo'rayev M. O'zbek xalq qo'shiqlari poetikasi. – Toshkent: Fan, 2012.
5. Mirzayev T., Sarimsoqov B. O'zbek folklori. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.